

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

4-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 4 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Sulaymanova Dildora Nazarovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Махмудова Нигора Баротовна</i> ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР ПЕНИТЕНЦИРНОГО ДЕЛА В КОЛОНИАЛЬНОМ ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ, ПО ОТЧЁТАМ РЕВИЗИИ СЕНАТОРА К.К.ПАЛЕНА	10-15
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i> RISHTON KULOLCHILIK MAKTAVI VA UNING LOKAL XUSUSIYATLARI ETNOGRAFIK TAHLILI	16-20
<i>Абдиев Рузикул Буронович</i> ИСТОРИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СОХРАНЕНИЯ АРХИТЕКТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	21-27
<i>Абдужаббаров Шерзод</i> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ, ФУНКЦИИ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СУЩЕСТВОВАНИЯ И РАБОТЫ СОВЕТА ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРА	28-33
<i>Boymurodov Shuxrat Toshkentovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA MAXSUS TA'LIM, SOHASIDA MA'NAVIY YANGILANISH	34-38
<i>Жураева Нафиса Олимовна</i> ТОПОГРАФИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ КУЛЬТОВЫХ СООРУЖЕНИЯХ НА ФОРМИРОВАНИЕ ГУЗАРОВ ГОРОДА БУХАРЫ	39-45
<i>Safarov Akmal</i> SUV XO'JALIGI SOHASI UCHUN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	46-52
<i>Tursunova Mahliyo Sarvar qizi</i> XORIJIIY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALAR FAOLIYATINING HUDUDIIY IJTIMOIIY-IQTISODIIY HAYOTGA TA'SIRI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA, 1991- 2026 -YILLAR).....	53-57
<i>Mardiyeva Guzal Karimovna</i> SAMARQAND VILOYATIDA SOVET DAVRINING DASTLABKI YILLARIDA XOTIN-QIZLARINING OLIY TA'LIMGA KIRISH IMKONIYATLARI VA CHEKLOVLAR	58-62
<i>Kenjayev Elyor Sattorovich</i> YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA STRATEGIK ISLOHOTLAR: TARAQQIYOT VA MA'NAVIY YUKSALISH UYG'UNLIGI	63-70
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Polvonov Anvar Naimovich</i> QASHQADARYODAGI YETAKCHI O'QUV DARGOHLARIDAN BIRI	71-79
<i>Mo'minova Gavxar Esanovna</i> O'ZBEKISTON SAVDO TARIXINI O'RGANISHDA DAVLAT ARXIVLARI HUJJATLARINING O'RNI	80-85
<i>Norboyev Sarvar Qahramon o'g'li</i> O'ZBEKISTON TARIXIIY SHAHARLARINING XALQARO MIQYOSDA TAN OLINISHI	86-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Tillabaeva Umida Makhsumovna, Talipova Nigora Tulkunovna</i> DIGITALIZATION AND EMPLOYABILITY: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS OF RESEARCH TRENDS (2018–2025)	91-100
<i>Xudoyorov Lochinbek Bahromovich</i> O'ZBEKISTON SERVIS SOHASIDA XIZMATLAR SIFATI KO'RSATKICHLARINING DINAMIK TAHLILI	101-107
<i>Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li</i> INNOVATSION MARKETING INDEKSI ASOSIDA KORXONALARNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI	108-113
<i>Ismoilov Bekzod Muxidinovich</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA TURIZM SOHASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	114-118
<i>Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich</i> O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING IJTIMOY-IQTISODIY OQIBATLARI KELIB CHIQISHI	119-135
<i>Nishonova Shaxnozaxon</i> ZAMONAVIY IQTISODIY TIZIM SHAROITIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH YONDASHUVLARI	136-140
<i>Fayziyeva Aziza Azamat qizi</i> SURXONDARYO VILOYATIDA KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINING BANDLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI: ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZ VA TAHLIL	141-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY RATSIONALIZM: TUSHUNCHA, EVOLYUTSIYA VA NAZARIY CHEGARALAR.....	155-165
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> O'ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARINING IJTIMOY ADOLATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	166-175
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> SAID AD-DIN AL-FARG'ONIY TA'LIMOTIDA ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK ASOSLAR	176-181
<i>Abduraxmov Xasan Ibroximovich</i> KOGNITIV-AXBOROT MUHITINING SUN'IY INTELLEKT SHAROITIDA YOSHLAR IJODKORLIGI VA TASHABBUSKORLIGIGA TA'SIRI.....	182-188
<i>Xolova Umida Umedovna</i> "O'RTA ASRLAR FALSAFIY TAFAKKURIDA MA'RIFAT KONSEPSIYASINING TARIXIY-FALSAFIY EVOLYUTSIYASI: TEOLOGIK VA MA'RIFIY BOSQICHLAR TAHLILI"	189-192
<i>Rajabova Rohila Zakirovna</i> AHMAD DONISH'S PHILOSOPHICAL VIEWS IN HIS WORK "NAVODIR UL-VAKOE"	193-197
<i>Kabulov Jahongir Bakhodirovich</i> SEPARATIZMNING ASIMMETRIK XUSUSIYATI.....	198-202
<i>Eshkuvvatov Jaloliddin</i> MADANIYATLARARO MULOQOTDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR SINTEZI..	203-210

Jomuradov Ikrom Ilxom o'g'li
IMMANUIL KANT VA ZAMONAVIY FALSAFADA NOUMENAL ERKINLIK MUAMMOSI:
FENOMENAL DETERMINIZM BILAN BOG'LIQ ANTINOMIK ZIDDIYATNING DOLZARB
TALQINLARI..... 211-215

Rustamova Madina
OMMAVIY MANIPULYATSIIYANING DESTRUKTIV XUSUSIYATI:
TAHDIDLAR VA OQIBATLAR..... 216-220

Yodgorov Alisher Nurmuhammadovich
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IJTIMOYIY MUNOSABATLARNING
TRANSFORMATSIIYASI..... 221-225

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Isanova Feruza Tulqinovna
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINOLOGIYASINING
GIBRID TABIATI: SHAKLLANISH MANBALARI, STRUKTUR-SEMANTIK
XUSUSIYATLARI VA FUNKSIONAL TAHLILI 226-232

Rahmatov Laziz, Baxronova Dilrabo
ABYA YALA (LOTIN AMERIKASI) DAVLATLARI NOMLARINING
LINGVOPOLITIK DISKURSI: ETIMOLOGIK VA GEOSIYOSIY TAHLIL 233-241

Quvvatova Shaxlo Choriyevna
XOLID HUSAYNIYNING “MING QUYOSH SHU'LASI” ASARI TAHLILI..... 242-246

Elmuratova Zamira Xodjamuratovna
NAQLLAR VA MAQOLLARNING FOLKLOR JANRIDAGI ROLI..... 247-251

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Shayzakov Shodiyor Ibragimovich
QONUNIIY KUCHGA KIRMGAN SUD HUJJATLARI USTIDAN APELLYATSIYA
TARTIBIDA SHIKOYAT QILISHNING PROTSESSUAL-HUQUQIY ASOSLARI..... 252-261

Umarova Xolisxon Nomoz qizi
O'ZBEKISTONDA RAQOBATGA QARSHI KELISHUVLAR HAQIDA XABAR BERGANLIK
UCHUN JAVOGBARLIKDAN OZOD QILISH VA JARIMALARNI KAMAYTIRISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI..... 262-269

Аминова Наргиза
ОТ СЕКУЛЯРИЗМА К ПОСТСЕКУЛЯРНОСТИ:
МОДЕЛИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РЕЛИГИОЗНОГО И СВЕТСКОГО
В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ 270-277

Amirov Agzamxon Aktamovich
QURILISHDA ULUSHLI ISHTIROK ETISH TUSHUNCHASINING TAHLILI..... 278-283

Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li
SUKUKNING NAZARIY POYDEVORI HAMDA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI:
ZAMONAVIY KAPITAL BOZORIDAGI O'RNI..... 284-294

Kabilov Sardor Asrolovich
JINOIY JAVOGBARLIKDAN OZOD QILISH TURLARI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI 295-300

<i>Nosirov Bekzod O'ktam o'g'li</i> ETIL SPIRTI, ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARINI VOJXONA CHEGARASIDAN NOQONUNIY OLIB O'TISH	301-304
<i>Sabirova Kuvanchay Babamuratovna</i> ГЕНДЕРНОЕ НАСИЛИЕ, УСИЛЕННОЕ ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ: ВЫЗОВЫ МЕЖДУНАРОДНОМУ ГУМАНИТАРНОМУ ПРАВУ И ПРОБЕЛЫ В ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ	305-310
<i>Urinboyeva Muxlisa Ma'rufovna</i> MEDIATSIYA INSTITUTIDA SUN'IY INTELEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI	311-318
<i>Majidov Islomjon Dilshod o'g'li</i> YAQIN QARINDOSHLAR BILAN BOG'LIQ HOLATLARDA TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI KVALIFIKATSIYA QILISHDA INSONPARVARLIK PRINSIPINI QO'LLASH MASALALARI	319-325
<i>Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li</i> HUQUQ VA IMKONIYATLAR MUVOZANATI: O'ZBEKISTONDA GENDER ADOLAT SARI YO'L.....	326-331
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Qurbonova Dilafroz Toshturdiyevna</i> TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSINING TARIXIY, ILMIY-ADABIY MANBALARDAGI TALQININI TALABA-QIZLARGA O'RGATISH	332-337
<i>Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li</i> SUMMATIVE ASSESSMENT AS A CONTEXT FOR DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING COMPETENCE: THE PROBLEM DIMENSION	338-344
<i>Abdullayeva Surayyo Ashrafxonovna</i> AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLARIGA EGA BOLALAR TA'LIMI VA TARBIYASINING TARIXIY SHAKLLANISHI HAMDA IJTIMOY ASOSLARI	345-354
<i>G'affarova Dilfuza Shavkat qizi</i> TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....	355-360
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> THE IMPACT OF VOLITIONAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE DEVELOPMENT OF BEHAVIORAL RESPONSES ENSURING EFFECTIVE SPORTS PERFORMANCE.....	361-367

Received: 16 March 2026

Accepted: 01 April 2026

Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

ANALYSIS OF THE CONCEPT OF PARTICIPATION IN CONSTRUCTION

Amirov Agzamkhan Aktamovich

National University of Uzbekistan

Faculty of Social Sciences

Department of Legal Studies Lecturer,

Independent Researcher

Abstract. This article provides a comparative-legal and doctrinal-normative analysis of the concept of participation in construction, exploring its distinctive features, essential characteristics, and the author's definition of the concept of participation in construction in detail.

Keywords: participation in construction, shared contract, parties, legal and natural persons, builder, shareholder, commercial banks, residential and non-residential premises, multi-apartment buildings, public relations, private relations, "single life cycle of housing" principle, "escrow" account.

QURILISHDA ULUSHLI ISHTIROK ETISH TUSHUNCHASINING TAHLILI

Amirov Agzamxon Aktamovich

O'zbekiston milliy universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

"Huquqiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi,

mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada qurilishda ulushli ishtirok etish tushunchasining qiyosiy-huquqiy hamda doktrinal-normativ tahlilini olib borish orqali qurilishda ulushli ishtirok etish tushunchasining o'ziga xos jihatlari hamda muhim bo'lgan xususiyatlari hamda qurilishda ulushli ishtirok etish tushunchasiga mualliflik ta'rifi atroflicha muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: qurilishda ulushli ishtirok etish, ulushli shartnoma, taraflar, yuridik va jismoniy shaxslar, quruvchi, ulushdor, tijorat banklari, turar va noturar joylar, ko'p kvartirali uylar, ommaviy munosabatlar, xususiy munosabatlar, "uy-joyning yagona hayotiy sikli" tamoyili, "eskrou" hisobvarag'i.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N39>

Kirish. Bizga ma'lumki, qurilishda ulushli ishtirok etish tushunchasining qiyosiy-huquqiy hamda doktrinal-normativ tahlilini olib borish hamda ushbu faoliyatning asosiy jihatlari aks ettirgan holda uning aniq, konkret tushunchasini shakllantirish qurilishda ulushli ishtirok etishda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish faoliyati samaradorligini oshirishga ma'lum bir ma'noda xizmat qiladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida bildirgan quyidagi fikrlarni, ya'ni: "Umuman, 2026-yilda qurilish ishlari hajmini 11 foizga ko'paytirib, 30 milliard dollarga yetkazishni reja qilyapmiz. Buning iqtisodiyotga qanday ta'sir ko'rsatishini hisoblab ko'raylik. Qurilish materiallari, uy-ro'zg'or uchun to'qimachilik mahsulotlari, elektr texnikasi, mebelsozlik kabi tarmoqlar, ushbu obyektlarga

xizmat ko'rsatadigan servis sohalari uchun qo'shimcha 5 milliard dollarlik bozor bo'ladi. Bu – 300 mingta qo'shimcha yangi ish o'rni degani. [11]", – ta'kidlaganligi qurilishda ulushli ishtirok etish tushunchasining tahlili naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Biz ushbu maqolamizda qurilishda ulushli ishtirok etish tushunchasining qiyosiy-huquqiy hamda doktrinal-normativ tahlilini olib borish orqali qurilishda ulushli ishtirok etishning o'ziga xos jihatlari hamda muhim bo'lgan xususiyatlarini ochib berish hamda qurilishda ishtirok etish tushunchasiga mualliflik ta'rifini berishga harakat qilamiz.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. O'zbekistonda qurilishda ulushli ishtirok etish tushunchasining tahlili tegishincha H.R.Rahmonqulov, I.B.Zokirov, O.Oqyulov, Sh.N.Ro'zinazarov, I.I.Nasriyev, S.B.Boyoqulov, S.S.Gulyamov, D.M.Karaxodjayeve, N.F.Imomov, M.X.Baratov, I.R.Rustambekov, Q.M.Mehmonov, MDH davlatlari miqyosida A.V.Ashaulov, M.I.Braginskiy, O.L.Kapitsa, A.A.Makovskaya, V.V.Melnik, Y.V.Romanets, L.G.Sayfulova, K.I.Sklovskiy, G.A.Samsonyan, A.N.Levushkin, Y.X.Akchulpanova, O.P.Frolova va A.G.Sherbinin tomonidan, xorijiy mamlakatlarda esa Christian Campell, Stoll Heinrich, Medicus Dieter, Remy Phillipe, Savaux Eric, Aubry Helene, Magnus Ulrich, J.Smith va R.Gordon tomonidan atroflicha o'rganilgan. Xususan, G.A.Samsonyan fikriga ko'ra, qurilishda ulushli ishtirok shartnomasi – fuqarolik huquqiy shartnomalarning bir shakli bo'lib, unda ishtirokchi qurilish ishlariga mablag' kiritadi va ishlar tugagach, obyektidagi ulushini oladi [5]. Shuningdek, Y.X.Akchulpanova ta'kidlashicha, qurilishda ulushli ishtirok etish shartnomasi – fuqarolik huquqiy munosabat bo'lib, u qurilish uchun mablag' jalb qilish va qurilgan obyektning mulk toifasiga o'tkazish munosabatlarini tartibga soladi [4; 180-188-betlar]. Shu bilan birga, J.Smith fikricha, fuqarolik huquqida ulushli qurilish loyihalarida ishtirok etish – shartnomaviy tartib bo'lib, unda har bir ishtirokchining huquqlari va majburiyatlari uning hissasiga muvofiq belgilanadi, bu esa shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlaydi [3]. Ya'ni, G.A.Samsonyan, Y.X.Akchulpanova va J.Smith mazkur ta'riflarida bevosita qurilishda ulushli ishtirok etish tushunchasiga shartnomaga ta'rif berish orqali urg'uni qaratadi. Huquqshunos olim A.N.Levushkinning fikricha, qurilishda ulushli ishtirok etish – fuqarolik, xo'jalik va korporativ huquqning shartnomaviy normalari orqali tartibga solinadi va bu qurilish loyihalarida quruvchilar va investorlar o'rtasidagi munosabatlarni tashkil etish huquqiy mexanizmi ta'minlashga qaratilgan munosabat [1]. Yuqoridagi ta'rifdan ko'rinib turibdiki, A.N.Levushkin qurilishda ulushli ishtirok etish tushunchasini huquq sohalarining interditsiplinar (sohalararo) yondashuv nuqtai nazardan yoritib bermoqda. O.P.Frolova ta'kidlashicha, qurilishda ishtirok etish shartnomasida sud amaliyoti va qonunchilikdagi o'zgarishlar tufayli muhim shartlar aniq emas hamda shartnoma bilan bog'liq huquqiy nizolar va shu sababli, taraflarning huquqlarini himoya qilish mexanizmlarida yetarlicha huquqiy kafolatlar yetishmaydi [6; 83-86-betlar]. Shu bilan birga, R.Gordon fikricha, ulushli qurilishda ishtirok – infratuzilmalarga xususiy investitsiyalarni rag'batlantiradigan, shu bilan birga kichik aksiyadorlarning huquqlarini himoya qiladigan, bu esa uni davlat-xususiy sheriklik uchun samarali vositaga aylantiradigan mexanizm hisoblanadi [2]. Tahlilimizdan anglashilmoqdaki, barcha huquqshunos va iqtisodchi olimlar qurilishda ulushli ishtirok etish tushunchasiga ta'rif berishda sohaviy, uning qaysidir bir funksiyasi, xususiyati yoki jihatini asos sifatida olib ta'rif berishga harakat qiladi.

Muhokama va natijalar. O'zbekistonda qurilishda ulushli ishtirok etish tushunchasining o'ziga xos jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Birinchiidan, qurilishda ulushli ishtirok etish ish bajarishga oid munosabatlar sohasiga kirishi. Bizga ma'lumki, fuqarolik huquqida ishni bajarish va xizmatlar ko'rsatish sohasi bir-biridan farqlanadi. Yuridik adabiyotlarda shartnomaviy munosabatlarda ish va xizmatni bir-biridan farqlanishi bilan bog'liq turli fikrlar mavjud. Ayrim mualliflar ular o'rtasidagi farq sifatida bajarilgan ishlarning ashyoviy xususiyatda bo'lishligini ta'kidlashsa, boshqalari esa, bajarilgan ishlar (masalan, ilmiy tadqiqot ishlari pudrati shartnomasi bo'yicha bajariladigan ishlar) ashyoviy bo'lmagan xususiyatga egaligini qayd qilishadi [7; 80-90-betlar]. Shuningdek, N.Narmatovning fikricha, xizmatlar deganda, qonun hujjatlariga muvofiq ijrochi faoliyatining nomoddiy natijasi bilan bog'liq bo'lgan hamda shaxsiy ehtiyojlarni haq evaziga qondirishga qaratilgan muayyan harakat yoki muayyan faoliyatning amalga oshirilishi tushuniladi. Bu o'rinda muallifning xizmatga nisbatan "nomoddiy natija" sifatida bergan ta'rifi hech qanday shubha uyg'otmaydi. Shuningdek, muallif xizmatlarning doirasi va turlari kengligini e'tiborga olgan holda uni shaxsiy xarakterda bo'lishi yoki bo'lmasligi, qondirilayotgan ehtiyojlardagi roli, nomoddiy natijaga erishish kafolatlanganligi, EHMdan foydalangan yoki foydalanmagan holda ko'rsatilishi, madaniy, ma'rifiy xizmatlar mezoni asosida tasniflashga qaratiladi [8; 30-40-betlar]. Ushbu fikrlardan kelib chiqqan holda ta'kidlash mumkinki, qurilishda ulushli ishtirok etish faoliyati oqibatida ko'chmas mulk (turar yoki noturar joylar) vujudga kelishi hamda ishlarning ashyoviy xususiyatga egaligi qurilishda ulushli ishtirok etish ish bajarishga oid munosabatlar sohasiga kirishini anglatadi.

Ikkinchiidan, qurilishda ulushli ishtirok etish tushunchasiga qonunchilik hujjatlarida ko'p kvartirali uylarni qurish nuqtai nazaridan ta'rif berilganligi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-maydagi PQ-4732-son qarori bilan tasdiqlangan "Ko'p kvartirali uylarni ulush kiritish asosida qurish to'g'risida"gi Nizom 3-bandi to'rtinchi xatboshisida ulush kiritish asosida qurilish – ko'p kvartirali uylarni quruvchilar va ulushdorlarning mablag'lari hisobidan qurish, rekonstruksiya qilish va qayta ixtisoslashtirish ekanligi belgilab qo'yilgan [9]. Ushbu ta'rifdan anglashimiz mumkinki, qurilishda ulushli ishtirok etish – ulushdorlar tomonidan quruvchiga pul mablag'lari kiritish evaziga kelajakda yaratiladigan ko'chmas mulk (turar va noturar joy)ga mulk huquqini qo'lga kiritishga qaratilgan investitsiya, pudrat hamda oldi-sotdi elementlarini o'z ichiga oladigan fuqarolik-huquqiy munosabat hisoblanadi.

Uchinchiidan, qurilishda ulushli ishtirok etish faoliyati ulushli shartnoma asosida amalga oshirilishi lozimligi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi "Uy-joy qurilishi sohasini yanada rivojlantirish, turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurish jarayonini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-11-son Farmoni 2-bandiga asosan, 2025-yil 1-iyuldan boshlab, obyektlarni qurishda qurilish-pudrat tashkilotlari, developerlar va buyurtmachilar tomonidan ulushdorlarning pul mablag'larini qurilishga ulush kiritish asosida jalb qilish faqat notarial tasdiqlangan va kadastr organlarida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan obyekt qurilishida ulush kiritish asosida ishtirok etish shartnomasi (ulushli shartnoma) bo'yicha amalga oshiriladi [10]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-maydagi PQ-4732-son qarori bilan tasdiqlangan "Ko'p kvartirali uylarni ulush kiritish asosida qurish to'g'risida"gi Nizom 3-bandiga asosan, ko'p kvartirali uylarni ulush kiritish asosida qurilishda ishtirok etish to'g'risidagi shartnoma – ko'p kvartirali uylarni ulush kiritish asosida qurish bo'yicha quruvchi va ulushdor o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi hamda mazkur Nizom talablariga

muvofiq hisobga qo'yilgan yozma shakldagi bitimdir [9]. Mazkur Nizom 4-bandiga asosan, quruvchi ulushdorlar bilan tuzilgan shartnomalar vakolatli davlat organi (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, viloyatlar qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmalari hamda Toshkent shahri Qurilish bosh boshqarmasi) tomonidan hisobga qo'yilganidan so'ng qurilish obyektini qurish uchun ulushdorlarning mablag'larini jalb qilishga haqli. Ya'ni, bundan anglashimiz mumkinki, ulushli shartnoma – quruvchi va ulushdor o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladigan, davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan va notarial tasdiqlangan, shartnoma davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab tomonlar birgalikda qurilish-montaj ishlari tugallangan obyektidan foydalanishi uchun ruxsatnoma berilgunga qadar munosabatlarni qamrab oladigan hamda kadastr organlarida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan obyekt (turar joy va noturar joy) qurilishida yozma shaklda ulush kiritish asosida ishtirok etish shartnomasi hisoblanadi;

To'rtinchidan, qurilishda ulushli ishtirok etish faoliyati taraflari jismoniy va yuridik shaxslar bo'lishi mumkinligi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-maydagi PQ-4732-son qarori bilan tasdiqlangan "Ko'p kvartirali uylarni ulush kiritish asosida qurish to'g'risida"gi Nizom 3-bandiga binoan, ulushdor — qurilish majmuasida bir yoki bir nechta qurilish obyektini mulk huquqi bilan olish maqsadida ulush kiritish asosida qurilishda ishtirok etish to'g'risida shartnoma tuzgan jismoniy yoki yuridik shaxs hisoblanadi [9]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi "Uy-joy qurilishi sohasini yanada rivojlantirish, turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurish jarayonini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-11-son Farmoni 1-bandiga asosan, turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurishda ulushdor – jismoniy va yuridik shaxslar hisoblanadi [10]. Xususan, jismoniy shaxslar deyilganda, O'zbekiston Respublikasi, fuqarolari, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, tadbirkorlik subyekti sifatida dehqon xo'jaligi, oilaviy tadbirkorlik va yakka tartibdagi tadbirkorlik, yuridik shaxs sifatida esa tijorat (to'liq shirkat, kommandit shirkat, mas'uliyati cheklangan jamiyat, aksiyadorlik jamiyati, ishlab chiqarish kooperativlari, xususiy korxonalar, dehqon xo'jaligi, oilaviy korxonalar, fermer xo'jaligi) va notijorat yuridik shaxslar (matlubot kooperativi, jamoat birlashmalari, jamoat fondlari, muassasalar, yuridik shaxslarning birlashmalari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari) nazarda tutilmoqda.

Beshinchidan, qurilishda ulushli ishtirok etishda xususiy munosabatlar bilan birgalikda ommaviy munosabatlar ham mavjud ekanligi. Ya'ni, qurilishda ulushli ishtirok etish munosabati "quruvchi va ulushdor o'rtasidagi sof xususiy munosabat" emas. Balki, davlat ham qurilishda ulushli ishtirok etishda iste'molchilar huquqlarini himoya qilishda "maxsus talablar" qo'yadi. Ushbu "maxsus talablar" ommaviy munosabatlar sifatida namoyon bo'ladi. Bunga misol sifatida, "uy-joyning yagona hayotiy sikli" tamoyilini joriy etilishini olishimiz mumkin. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi "Uy-joy qurilishi sohasini yanada rivojlantirish, turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurish jarayonini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-11-son Farmoni 1-bandiga binoan, turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurish jarayonida jismoniy va yuridik shaxslarning (ulushdor) huquqlari himoya qilinishini ta'minlash, mavjud yer resurslaridan samarali (intensiv) foydalangan holda

uy-joylar qurilishini tashkil qilish, uy-joy qurilishi sohasida investitsiya loyihalarini amalga oshirish muddatlarini qisqartirish, uy-joylarni ulush kiritish va ipoteka krediti asosida sotib olishning ishonchli va samarali imkoniyatini yaratish hamda uy-joylar qurilishida energiya samarador qurilish materiallaridan foydalanishni ommalashtirish “uy-joyning yagona hayotiy sikli” tamoyili hisoblanadi [10].

Oltinchidan, qurilishda ulushli ishtirok etishda tijorat banklari taraf sifatida ishtirok etish mumkinligi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi “Uy-joy qurilishi sohasini yanada rivojlantirish, turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurish jarayonini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-11-son Farmoniga [10] asosan, tijorat banklarining taraf sifatida ishtirok etishi mumkinligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ulushli shartnoma bo‘yicha mablag‘lar ulushdor tomonidan vakolatli tijorat bankida quruvchi, ulushdor va tegishli tijorat banki o‘rtasida tuziladigan shartnoma asosida ochilgan “eskrou” hisobvarag‘iga ularning hisobini yuritish uchun joylashtirilishi va deponentlanishi;
- ulushdorlarning uchinchi shaxslar oldidagi majburiyatlari va quruvchining majburiyatlari yuzasidan “eskrou” hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish, mablag‘larni xatlash yoki hisobdan chiqarishga yo‘l qo‘yilmasligi;
- obyektning qurish ishlarini moliyalashtirish tijorat banklari tomonidan loyihaviy moliyalashtirish orqali ajratiladigan kredit mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishi mumkinligi;
- birinchi bosqichda quruvchi tomonidan obyektning qurish ishlari umumiy hajmining kamida 30 foizi o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshirilgandan so‘ng tijorat banki tomonidan quruvchiga maqsadli kredit ajratish tizimi yo‘lga qo‘yilishi.
- Shuningdek, mazkur Farmon 3-bandiga binoan, qurilishga ulushdorlarning mablag‘larini jalb qilish 2025-yil 1-iyuldan 2025-yil 31-dekabrga qadar “eskrou” hisobvaraqlari orqali hamda hozirda amalda bo‘lgan ulushli ishtirok etish tartibida to‘g‘ridan-to‘g‘ri jalb qilish mexanizmi bo‘yicha parallel ravishda taraflarning tanloviga ko‘ra amalga oshiriladi, 2026-yil 1-yanvardan boshlab faqat “eskrou” hisobvaraqlari orqali amalga oshiriladi. Ya‘ni, 2026-yil 1-yanvardan boshlab tijorat banklari qurilishda ulushli ishtirok etishda majburiy ishtirok etishi lozim bo‘lgan tarafga aylanadi.

Xulosa. Yuqorida qiyosiy-huquqiy hamda doktrinal-normativ tahlildan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, qurilishda ulushli ishtirok etish tushunchasining quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari mavjud:

- qurilishda ulushli ishtirok etish ish bajarishga oid munosabatlar sohasiga kirishi;
- qurilishda ulushli ishtirok etish tushunchasiga qonunchilik hujjatlarida ko‘p kvartirali uylarni qurish nuqtai nazaridan ta‘rif berilganligi;
- qurilishda ulushli ishtirok etish faoliyati ulushli shartnoma asosida amalga oshirilishi lozimligi;
- qurilishda ulushli ishtirok etish faoliyati taraflari jismoniy va yuridik shaxslar bo‘lishi mumkinligi;
- qurilishda ulushli ishtirok etishda xususiy munosabatlar bilan birgalikda ommaviy munosabatlar ham mavjud ekanligi;

- qurilishda ulushli ishtirok etishda tijorat banklari taraf sifatida ishtirok etish mumkinligi.

Demak, yuqorida biz ta’kidlab o’tgan qurilishda ulushli ishtirok etishning o’ziga xos jihatlaridan kelib chiqqan holda, qurilishda ulushli ishtirok etish tushunchasiga quyidagi ta’rifni berish maqsadga muvofiq hisoblanadi: *“Qurilishda ulushli ishtirok etish – ulushdorlar (jismoniy va yuridik shaxslar) tomonidan quruvchiga pul mablag’lari kiritish evaziga kelajakda yaratiladigan ko’chmas mulk (turar va noturar joy)ga mulk huquqini qo’lga kiritishga qaratilgan investitsiya, pudrat hamda oldi-sotdi elementlarini o’z ichiga oladigan, ulushli shartnoma asosida yuzaga keladigan ommaviy va xususiy huquqiy munosabatlar yig’indisi hisoblanadi”*.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. A. N. Levushkin // Contractual regulation of participation in shared-equity construction, Courier of Kutafin Moscow State Law University, 2023, https://www.researchgate.net/publication/368677656_Contractual_regulation_of_participation_in_shared-equity_construction_in_the_structure_of_development_activities.
2. Gordon, R., “Equity Participation in Infrastructure Projects”, Canadian Journal of Economics, 2018.
3. Smith, J., Construction Law and Contractual Arrangements, 2019, UK.
4. Акчулпанова Е.Х. Правовое регулирование договора участия в долевом строительстве: Дис. . кандидат юрид. наук. Казань, 2006.
5. Г. А. Самсоныан // К вопросу о правовой природе договора участия в долевом строительстве, «Молодой ученый», 2024, <https://moluch.ru/archive/502/110400>.
6. Фролова О. П. О правовой природе договора участия в долевом строительстве, его существенных условиях и об актуальных способах защиты сторон договора // Актуальные исследования. 2024. №43 (225). Ч.1, <https://apni.ru/article/10341-o-pravovoj-prirode-dogovora-uchastiya-v-dolevom-stroitelstve-ego-sushestvennyh-usloviyah-i-ob-aktualnyh-sposobah-zashity-storon-dogovora>.
7. Mualliflar jamoasi. Fuqarolik huquqi. Toshkent: Ilm ziyo, 2008.; Гражданское право. Под ред. А. П. Сергеева, Ю. К. Толстого. М.: Проспект, 2006.; Брагиский М., Витрянский В. Договорное право. М.: Статут, 2006.
8. N.Narmatov. Xizmat ko’rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini fuqaroviy huquqiy tartibga solish muammolari. / Mas’ul muharrir H.Rahmonqulov. Toshkent.: O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti, 2009.
9. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-maydagi PQ-4732-son qarori bilan tasdiqlangan “Ko’p kvartirali uylarni ulush kiritish asosida qurish to’g’risida”gi Nizom // (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.05.2020-y., 07/20/4732/0681-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021-y., 06/21/6218/0398-son, 19.06.2021-y., 07/21/5152/0578-son, 24.07.2021-y., 06/21/6269/0704-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son; 29.08.2023-y., 06/23/151/0661-son).
10. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi “Uy-joy qurilishi sohasini yanada rivojlantirish, turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurish jarayonini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-11-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.02.2025-y., 06/25/11/0097-son.
11. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va O’zbekiston xalqiga Murojaatnomasida so’zlagan nutqi, <https://president.uz/oz/lists/view/8834>.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).